

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi

BD-5110100-3.01

2016-yil "25" 08



UMUMIY PEDAGOGIKA
FAN DASTURI

- Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar
Ta'lim sohasi: 110000 – Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi: 5110100 – Matematika o'qitish metodikasi;
5110200 – Fizika va astronomiya o'qitish metodikasi;
5110300 – Kimyo o'qitish metodikasi;
5110400 – Biologiya o'qitish metodikasi;
5110500 – Geografiya o'qitish metodikasi;
5110600 – Tarix o'qitish metodikasi;

5110700 – Informatika o'qitish metodikasi;
5110800 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi;
5111000 – Musiqa ta'limi;
5111300 – Ona tili va adabiyoti (rus tili va adabiyoti; rus tili va adabiyoti o'zga tili guruhlarda; koreys tili va adabiyoti);
5111400 – Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili va adabiyoti);
5111400 – Xorijiy til va adabiyoti (nemis tili va adabiyoti)
5111500 – Chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik;
5111600 – Milliy g'oya: ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi;
5112000 – Jismoniy madaniyat;
5112100 – Mehnat ta'limi;

Toshkent – 2016

O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2017-yil “___” _____ dagi “___”-sonli buyrug‘ining ___-ilovasi bilan fan dasturi ro‘yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashining 2016-yil “___” _____ dagi “___”-son majlis bayonnomasi bilan ma’qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

- Tuzuvchilar: Ruzieva D.I. – Nizomiy nomidagi TDPU “Umumiy pedagogika” kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari doktori, dotsent
- Kaldibekova A.S. – Nizomiy nomidagi TDPU “Umumiy pedagogika” kafedrasini professori, pedagogika fanlari nomzodi
- Xodjaev B.X. – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori, pedagogika fanlari doktori, professor
- Taqrizchilar: Mardonov Sh.Q. – Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti professori, pedagogika fanlari doktori
- YUnusova SH.M. - CHilonzor pedagogika kolleji o‘qituvchisi, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti O‘quv-uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2016-yil “___” _____ dagi “___”-sonli majlis bayonnoma).

I. Kirish

1.1. Fanning dolzarbligi va zaruriyati

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat bosqichi uchun mo'ljallangan "Umumiy pedagogika" fani dasturi Davlat ta'lim standarti va namunaviy o'quv reja asosida tuzilgan.

"Umumiy pedagogika" fani dasturi pedagogikaning uch mustaqil sohasini o'zida mujassamlashtirgan: pedagogika nazariyasi, pedagogika tarixi va pedagogik mahorat.

"Pedagogika nazariyasi" kursi kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning tarkibiy qismlari, pedagogika fanining shakllanishi va rivojlanishi, maqsad va vazifalari, predmeti, ilmiy-tadqiqot metodlari, shaxs rivojlanishi va unga ta'sir etuvchi omillar, yagona pedagogik jarayon va uning mohiyati, didaktika (ta'lim nazariyasi), ta'lim jarayoni qonuniyatlari va tamoyillari, ta'lim mazmuni, ta'lim metodlari va vositalari, ta'limni tashkil etish shakllari, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish, tarbiya jarayoni mazmuni, mohiyati, qonuniyatlari, tamoyillari, tarbiyaning umumiy metodlari, tarbiya turlari mazmuni, mohiyati, maqsad va vazifalari, shakl, metod va vositalari, ta'lim muassasalarini boshqarish, korreksion pedagogika asoslarini o'z ichiga qamrab oladi.

"Pedagogika tarixi" kursi pedagogikaning alohida sohasi sifatida pedagogik fikrlarning paydo bo'lishi va rivojlanishini o'rganish orqali yangi, istiqbolda hal etilishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilab beradi hamda uni hal etish strategiyalarini ko'rsatib beradi. U eng qadimgi davrlardan O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilingandan keyingi davrda pedagogik fikrlar va ta'lim tizimining rivojlanishi hamda eng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha jahon mamlakatlarida tarbiya, ta'lim va pedagogik fikrlar rivojiga doir masalalarni o'zida aks ettiradi.

"Pedagogik mahorat" kursida pedagogik mahorat va madaniyat, ta'lim amaliyoti va pedagogik fikrlar tarixida o'qituvchi mahorati masalasining aks etishi, pedagogik qobiliyat, o'qituvchining kommunikativ qobiliyati, muloqot psixologiyasi va muloqot madaniyati, pedagogik muloqot, pedagogik takt va pedagogik etika, pedagogik texnika va uni egallash yo'llari, nutq madaniyati, o'qituvchining o'quv jarayonidagi mahorati, o'qituvchining tarbiyachilik mahorati, o'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etish, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash, ilg'or pedagogik tajribani ommalashtirish kabi masalalar o'rganiladi.

1.2. Fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatidan uzviyligi

"Umumiy pedagogika" fani umumkasbiy fan hisoblanib, 3-4 semestrlarda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan O'zbekiston tarixi, yosh fiziologiyasi, anotomiyasi va gigienasi, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, umumiy psixologiya fanlari bilan o'zaro aloqadorlikda olib boriladi.

1.3. Fanning ta'limdagi o'rni

Pedagogikaning nazariy-tarixiy asoslari, pedagogik mahorat kurslari umumkasbiy kompetentlikning asosini tashkil etib, bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda katta ahamiyatga ega.

1.4. Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

“Umumiy pedagogika” fanini o'rganish davomida modullar paytida komp'yuter, axborot va ta'limning boshqa zamonaviy texnologiyalari qo'llaniladi. Bundan tashqari darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ma'lumotnomalar, pedagogik entsiklopediyalar va lug'atlar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallardan foydalaniladi.

1.5. “Umumiy pedagogika” fani blok-modulli dasturi annotatsiyasi (Module syllabus)

O'quv kursining to'liq nomi	Umumiy pedagogika
Semestr va o'quv kursining davomiyliigi	3-5 semestr
O'quv kursining maqomi	Umumkasbiy fanlar bloki
Dastlabki tayyorgarlik:	Pedagogika ta'lim yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlaridagi “Pedagogika” fanidan o'zlashtirilgan bilimlarga asoslanadi
Fanning predmeti va mazmuni: ta'lim-tarbiya jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, amaliy-texnologik tizimi, pedagogik fikrlar taraqqiyoti, pedagogik mahorat asoslari.	
Fanning maqsadi – bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik fanining nazariy-tarixiy asoslari va o'qituvchi mahoratiga doir bilimlar bilan qurollantirish, O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini oqilona tashkil etish, pedagogik merosdan samarali foydalanish, real ta'lim amaliyotida yuksak pedagogik madaniyat va texnikani namoyon eta olishga o'rgatish.	
Fanning vazifasi: <ul style="list-style-type: none">– talabalarni Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida o'qituvchilarni ma'maviy-axloqiy tarbiyalash va ta'limni samarali tashkil etishga o'rgatish;– o'quv-tarbiya jarayonini samarali boshqarish, o'quv-me'yoriy hujjatlar bilan ishlash hamda ta'lim olganlikni tashxis etish qoninuyat va tamoyillari bilan tanishtirish;– o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion ish yo'nalishlari hamda	

rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni o'qitish va rivojlantirish mazmunini o'zlashtirish;

– milliy va jahon pedagogik fikrlari taraqqiyoti bilan tanishtirish hamda pedagogik merosdan samarali foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

– global doirada ta'lim tizimi rivojlanishining holati, asosiy yo'nalishlari va qonuniyatlarini tahlil etish, milliy va hududiy o'ziga xosliklardagi umumiy ko'rinishlarni ochib berish, xalqaro pedagogik tajribaning ijobiy va salbiy jihatlari, milliy pedagogik madaniyatni boyitish shakl va metodlarini aniqlashtirish;

– talabalarni o'qituvchi faoliyatida kasbiy mahoratning tutgan o'rni, mazmun-mohiyatiga doir nazariy bilimlar hamda pedagogik faoliyatning turli ko'rinishlarida o'qituvchining muomala madaniyati, o'quvchilar bilan aloqa o'rnatish va muloqotga kirisha olish metodikasini to'liq o'zlashtirishlariga erishish.

“Umumiy pedagogika” fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

1.1) ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari

1.2) pedagogikaning ilmiy-nazariy asoslari;

1.3) pedagogik fikrlarning rivojlanish taraqqiyoti;

1.4) pedagogik mahoratning ilmiy asoslari;

1.5) pedagogik madaniyat va texnikaning mohiyati;

1.6) o'quv jarayonini tashkil etishning metod va shakllariga qo'yilgan zamonaviy talablar;

1.7) ta'lim oluvchilar shaxsini rivojlantirish omillari, yosh davrlarining o'ziga xosliklari;

1.8) yaxlit o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirish;

1.9) tarbiya jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari;

1.10) pedagogik menejmentning mohiyati va o'ziga xosliklari;

1.11) korreksion pedagogikaning asosiy yonalishlari **haqida tasavvurga ega**

bo'lishi;

2.1) milliy g'oya va asosiy pedagogik qonuniyatlar hamda tamoyillarga asoslangan holda o'quv-tarbiya ishlarini o'tkazishni;

2.2) ta'limni tashkil etishning asosiy shakllarini amaliyotda qo'llashni;

2.3) ta'lim va tarbiya metodlari, vositalarini amaliyotda qo'llash, aniq vaziyatlar uchun ularning qulay variantlarini tanlashni;

2.4) o'quv va tarbiya jarayonida o'quvchilar jamoasini samarali boshqarishni;

2.5) o'quvchilar xulqi va faoliyatini rag'batlashni;

2.6) pedagogik maqsadlarga erishishda egallanadigan bilimlarni tanlash, tahlil etish, umumlashtirish va ularni texnologik shaklda taqdim etishni;

2.7) aniq sharoitlarda ta'lim-tarbiyaga doir amaliy vazifalarni hal etishni;

2.8) jahon mamlakatlari ta'lim tizimi rivojiga doir ma'lumotlarni tahlil etish va tizimlashtirishni;

2.9) o'quvchi shaxsi va o'quvchilar jamoalarini o'rganish, ta'limda orqada qolish sabablarini aniqlashni;

2.10) muloqotga moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash, o'z-o'zini boshqara olish,

o‘zaro ta‘sir etish va hamkorlikda ishlashni ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;

3.1) psixologik-pedagogik adabiyotlar bilan ishlash;

3.2) zarur metodik yo‘riqnomalar tuzish;

3.3) samarali pedagogik tadqiqotlar o‘tkazish;

3.4) pedagogik texnologiya va axborot texnologiyalaridan foydalana olish;

3.5) tarbiyaviy ishni rejalashtirish va amalga oshirish;

3.6) guruh jamoasining psixologik muhitini va auditoriya bilan munosabatda individual, shaxsiy va yosh imkoniyatlarini hisobga olish’

3.7) istiqboldagi rivojlanish va talab etiladigan natijaga erishishni strategik rejalashtirish;

3.8) pedagogik vazifalarni hal etishga doir standart bo‘lmagan yondashuvlarni izlab topish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak***;

4.1) motivatsion-kognitiv – bilish faoliyatiga yo‘nalganlik, o‘quv-bilish faoliyatining anglanganligi, ijodiylik, nastandart vaziyatlardagi xulq-atvor, o‘quv vazifalarini hal etishdagi mustaqillik, pedagogik kasbini egallashga qiziqish va intilishlarga ega bo‘lish;

4.2) informatsion – axborotlar ustida ishlash, axborot xurujlaridan himoyalanih, axborot iste‘moli madaniyatini egallash;

4.3) kommunikativ – lingvistik savodxonlik, adabiy va ilmiy uslub qoidalarini o‘zlashtirish, verbal va noverbal nutq ko‘nikmalarini o‘zlashtirish, o‘zaro fikr almashish, voqelikni tahlil etishda erkin muloqotga kirishish, pedagogik voqelikka o‘zining xolisona munosabatini bildirish;

4.4) g‘oyaviy-mafkuraviy – milliy g‘oyaning mazmun-mohiyatidan xabardorlik, dunyoning mafkuraviy manzarasini anglash, g‘oyaviy immunitetga egalik, mafkuraviy tahdidlardan himoyalanih, milliy g‘oyaning shaxsiy va ijtimoiy mohiyatini anglash, milliy g‘oyaning pedagogik faoliyatdagi o‘rnini aniqlashtirish;

4.5) fuqarolikka doir – siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy, madaniy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyatini anglash, milliy-madaniy meros, xalqning o‘tmishi, buguni va istiqbolini uyg‘unlikda tahlil etish, ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirok etish, mahalla hayoti va o‘z-o‘zini boshqarish institutlari, ijtimoiy harakatlar tomonidan o‘tkazilayotgan loyihalarda faollik ko‘rsatish;

4.6) ma‘naviy-axloqiy – jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me‘yorlarini o‘zlashtirish va amal qilish, yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlarni o‘zlashtirish va pedagogik faoliyatning bosh mezoniga aylantirish, ma‘naviy tahdidlarga qarshi kurashish, ma‘naviy targ‘ibot va tashviqot ishlarini tashkil etishga tayyorgarlik;

4.7) akmeologik – o‘ziga va uni o‘rab turgan atrof-muhitga ishonch, o‘z xohish-istaklari va ehtiyojlarini to‘liq anglash, bugungi kundagi mavjud imkoniyatlarni va kelgusidagi ijodiy rivojlanish istiqbollarni aniqlash, refleksiya, identifikatsiya, interiorizatsiyaga, o‘zining qarashlari, e‘tiqodi va ustanovkalarini o‘zgartirishga qobiliyatlilik;

4.8) aksiologik – pedagogik voqelikni aksiologik baholash, pedagogik hodisalarni qadriyat sifatida anglash, pedagogik jarayondan zavqlanish, lazzatlanish, mas‘uliyat hissini sezish, o‘z pedagogik pozitsiyasini anglash va

ta'limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlik.	
O'qitish metodlari:	Interfaol ma'ruza, intarfaol ta'lim strategiyalari (hamkorlikda o'qitish, fasilitatsion, kontekstual)
Mustaqil ishlar	Referatlar, dokladlar, o'quv loyihalari va keyslar va h.k.
Talabalarining bilimlarini baholash usullari, mezonlari va tartibi:	
JN va ON ballari ishchi daturda beriladi	
Baholash usullari	Yozma islar, og'zaki so'rov va h.k.
Fan bo'icha talabalar bilimni nazorat qilish va baholash mezoni	
86-100	<p>-talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1) pedagogikaning fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi; pedagogika fanining asosiy kategoriya-lari; Kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning tarkibiy qismlari; shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlari; yaxlit pedagogik jarayon va uning tuzilishi, pedagogik jarayonning qonuniyatlari va tamoyillari; didaktikaning ob'ekti, predmeti, asosiy kategoriyalari; ta'lim jarayoni hamda uning qonuniyat va tamoyillari; ta'lim mazmuni va uni tanlab olish mezonlari; ta'limning shakl, metod va vositalari, ta'lim olganlikni tashxis etish; tarbiya jarayoni, uning qonuniyat va tamoyillari; tarbiya mazmuni; tarbiyaning umumiy metodlari; tarbiya turlari; ta'lim muassasasi menejmentiga doir aniq bilimlarga ega bo'lishi; 2) pedagogik jarayonni tashkil etish va boshqarish; ta'lim mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar bilan ishlash; ta'lim-tarbiyaning metod, shakl va vositalarini amalda mustaqil qo'llay olish; o'quvchilarining BKMLarini nazorat qilish ko'nikmalarini egallagan bo'lishi; 3) pedagogik tafakkur yuritish; mustaqil mushohada yuritish; ijodiy fikr yurita olish malakalari ega bo'lishi lozim. 4) pedagogik fikrlarning rivojlanish taraqqiyoti, pedagogik mahoratning ilmiy asoslariga doir aniq bilimlarga ega bo'lishi; 5) bilimlarni tanlash, tahlil etish, umumlashtirish va ularni texnologik shaklda taqdim etish, aniq sharoitlarda ta'lim-tarbiyaga doir amaliy vazifalarni hal etish, jahon mamlakatlari ta'lim tizimi rivojiga doir ma'lumotlarni tahlil etish va tizimlashtirish ko'nikmalari-ga ega bo'lishi; 6) istiqboldagi rivojlanish va talab etiladigan natijaga erishishni strategik rejalashtirish malakalariga ega bo'lishi lozim.
71-85	<p>-talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1) peda-gogikaning fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi; pedagogika fanining asosiy kategoriyalari; Kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning tarkibiy qismlari; shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlari; yaxlit pedagogik jarayon va uning tuzilishi; didaktikaning ob'ekti, predmeti, asosiy kategoriyalari; ta'lim jarayoni va uning o'ziga xosliklari; ta'lim mazmuni va uni tanlab olish mezonlari; ta'limning shakl, metod va vositalari, ta'lim olganlikni tashxis etish; tarbiya jarayoni, uning mazmuni; tarbiyaning umumiy metodlari; tarbiya turlari; ta'lim muassasasi menejmentiga doir bilimlarga ega bo'lishi; 2) pedagogik jarayonni tashkil etish va boshqarish; ta'lim mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar bilan ishlash; ta'lim-tarbiyaning metod, shakl va vositalarini qo'llay olish; o'quvchilarining BKMLarini nazorat qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi; 3) pedagogik tafakkur yuritish; mustaqil mushohada yuritish; ijodiy fikr yurita olish malakalari ega bo'lishi lozim. 4) pedagogik fikrlarning rivojlanish taraqqiyotiga doir bilimlarga ega bo'lishi; 5) bilimlarni tanlash, tahlil etish, umumlashtirish va ularni texnologik shaklda taqdim etish, aniq sharoitlarda ta'lim-tarbiyaga doir amaliy vazifalarni hal etish, jahon mamlakatlari ta'lim tizimi rivojiga doir ma'lumotlarni tahlil etish

	<p>ko'nikmalariga ega bo'lishi;</p> <p>6) pedagogik vazifalarni hal etishga doir standart bo'lmagan yondashuvlarni izlab topish malakalariga ega bo'lishi lozim.</p>
55-70	<p>-talabning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:</p> <p>1) peda-gogikaning fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi; pedagogika fanining asosiy kategoriyalari; Kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning tarkibiy qismlari; shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlari; yaxlit pedagogik jarayon va uning tuzilishi; didaktikaning ob'ekti, predmeti, asosiy kategoriyalari; ta'lim mazmuni va uni tanlab olish mezonlari; ta'limning shakl, metod va vositalari; ta'lim olganlikni tashxis etish; tarbiya jarayoni; tarbiyaning umumiy metodlari; tar-biya turlari; ta'lim muassasasi menejmentiga doir umumiy bilimlarga ega bo'lishi;</p> <p>2) pedagogik jarayonni tashkil etish va boshqarish; ta'lim mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar bilan ishlash; ta'lim-tarbiyaning metod, shakl va vositalarini qo'llay olish; o'quvchilarining BKMLarini nazorat qilish ko'nikmalarini egallashi lozim.</p> <p>3) pedagogik fikrlarning rivojlanish taraqqiyoti, pedagogik mahoratning ilmiy asoslariga doir umumiy bilimlarga ega bo'lishi;</p> <p>4) bilimlarni tanlash, tahlil etish, umumlashtirish va ularni texnologik shaklda taqdim etish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.</p>
0-54	<p>fanning mazmunini DTSda belgililangan minimal BKMLar darajasida o'zlashtirmagan talabalarga 54 va undan past ball qo'yiladi</p>

1.6. Fanning hajmi.

№	Mashg'ulot turi	Ajratilgan soat	Semestr
“Pedagogika nazariyasi” moduli			
1.	Ma'ruza	36	III
2.	Seminar	40	III
3.	Mustaqil ta'lim	56	III
	Jami:	132	
Pedagogika tarixi moduli			
1.	Ma'ruza	28	IV
2.	Seminar	32	IV
3.	Mustaqil ta'lim	46	IV
	Jami:	106	
Pedagogik mahorat moduli			
1.	Ma'ruza	16	V
2.	Seminar	24	V
3.	Mustaqil ta'lim	30	V
	Jami:	70	
	Umumiy soat:	308	

II. Asosiy qism

II.1. Ma'ruza mashg'ulotlari taqsimot jadvali

Modullar, submodullar va o'quv elementlarining nomlanishi	Soat	O'rganilish muddati (hafta)
2	3	4
Kursni o'rganishning boshlanishida o'zaro aloqador fanlar bo'yicha kirish nazorati (test) o'tkaziladi		
1-modul. "Pedagogika nazariyasi"	36	III semestr 1-19-hafta
Pedagogikaning umumiy asoslari	8	
1.1.1 . O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirishning kontseptual asoslari.	2	
1.1.2 . Pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to'g'risidagi fan. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari	2	
1.1.3 . Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi	2	
1.1.4 . Yaxlit pedagogik jarayon	2	
Didaktika (Ta'lim nazariyasi)	10	
1.2.1 . Didaktika – pedagogik ta'lim nazariyasi. O'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida	2	
1.2.2 . Ta'lim mazmuni	2	
1.2.3 . Ta'lim metodlari va vositalari	2	
1.2.4 . Ta'limni tashkil etish shakllari va turlari	2	
1.2.5 . O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish	2	
Tarbiya nazariyasi	14	
1.3.1 . Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari	2	
1.3.2 . Jamoa tarbiya ob'yekti va sub'ekti sifatida	2	
1.3.3 . Tarbiyaning umumiy metodlari	2	
1.3.4 . O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish. Aqliy tarbiya	2	
1.3.5 . Fuqarolik tarbiyasi	2	
1.3.6 . Ma'naviy-axloqiy tarbiya	2	
1.3.7 . O'quvchilarning mehnat, jismoniy va estetik tarbiyasi	2	
Ta'lim muassasasi menejmenti	2	

1.4.1 . Ta'lim muassasasini boshqarishning nazariy asoslari	1	
1.4.2 . Ta'lim muassasasini boshqarish amaliyoti	1	
Maxsus pedagogika	2	
1.5.1 . Korreksion pedagogika	1	
1.5.2 . Inklyuziv ta'lim	1	
2-modul. "Pedagogika tarixi"	28	IV semestr 1-19-hafta
Ilk pedagogik fikrlar tarixi	4	
2.1.1 . Pedagogika tarixi fan sifatida. Ibtidoiy jamoada tarbiya.	2	
2.1.2 . Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar	2	
VII-XIV asrning birinchi yarmida O'rta Osiyoda maktab va pedagogik fikrlar rivoji	6	
2.2.1 . VII asrdan IX asrgacha O'rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar	2	
2.2.2 . Sharq Uyg'onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi	2	
2.2.3 . Sharq Uyg'onish davrida ta'limiy-axloqiy fikrlar rivoji	2	
XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji	4	
2.3.1 . XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda tarbiya va maktab	2	
2.3.2 . XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda pedagogik fikrlar rivoji	2	
XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogic fikrlar rivoji	2	
2.4.1 . XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya va maktab	1	
2.4.2 . XVII asrdan XIX asrning yarmigacha pedagogik fikrlar rivoji	1	
XIX asrning 2-yarmi – XX asrning 1-yarmida Turkiston o'lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji	2	
2.5.1 . XIX asrning 2-yarmi – XX asr boshida Turkiston o'lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji	1	
2.5.2 . Turkiston o'lkasida ta'lim syosati (1917-1924).	1	
1924-1991 yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi	2	
2.6.1 . 1924-1945 yillarda ta'lim va pedagogika fani.	1	
2.6.2 . 1945-1991 yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji.	1	
Mustaqil O'zbekiston ta'lim tizimi va innovatsion-pedagogik	2	

fikrlar rivoji		
2.7.1 . Mustaqil O‘zbekiston ta’lim tizimi.	1	
2.7.2 . Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji va strategik yo‘nalishlari	1	
Jahon pedagogik fikrlar rivoji va komparativ pedagogika	6	
2.8.1 . Eng qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi yarmida jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi. .	2	
2.8.2 . XIX asrning 2-yarmi – XX asrda jahon pedagogika faning rivoji. K.D.Ushinskiyning pedagogik merosi.	2	
2.8.3 . Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta’lim tizimi va pedagogika fani rivoji..	2	
3-modul. Pedagogik mahorat		V semestr 1-19-hafta
Pedagogik mahoratning metodologik masalalari	4	
3.1.1 . Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o‘qituvchi mahorati masalalari.	2	
3.1.2 . Pedagogik mahoratning asosiy komponentlari	2	
Pedagogik qobiliyat	4	
3.2.1 . O‘qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat.	2	
3.2.2 . Kommunikativ malakalar va ta’sir ko‘rsatish	2	
Pedagogik deontologiya.	4	
3.3.1 . O‘qituvchi faoliyatida muomala madaniyati va psixologiyasi.	2	
3.3.2 . Pedagogik takt va pedagogik etika	2	
Pedagogik faoliyatni ilmiy tashkil etish	4	
3.4.1 . Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnikani shakllantirish metodikasi. Nutq texnikasi va madaniyati.	2	
3.4.2 . O‘qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish. O‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z ustida ishlash. Pedagogika tajribani to‘plash tizimi.	2	
	76	

2.2. Seminar mashg‘ulotlari tematikasi

O‘quv elementi raqami va savollari	Mashg‘ulot turi va o‘tkazish muddati
1-modul. “Pedagogika nazariyasi”	
1.1.1 . O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi Ta’lim sohasidagi davlat siyo-satining asosiy tamoyillari. Kadrlar tayyorlash milliy modeli. Ta’lim tizimi va turlari.	IV semestr, 1-hafta (guruhlarda ishlash)

	2 s
<p>1.1.2 . Pedagoglik kasbi va uning vazifalari</p> <p>Pedagoglik kasbining paydo bo'lishi va demokratik jamiyatda pedagoglik kasbining o'ziga xosliklari. Sharq va G'arb mutafakkirlarining pedagoglik kasbiga doir fikrlari. Pedagogning shaxsiy va kasbiy sifatlari. Pedagogik faoliyatni modellashtirish.</p>	IV semestr, 2-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
<p>1.1.3 . Pedagogika fan sifatida. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari</p> <p>Pedagogika ihtimoiy fan sifatida. Pedagogikaning asosiy kategoriya-lari. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.</p>	IV semestr, 3-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
<p>1.1.4 . O'quvchi shaxsi tarbiyaning obyekti va subyekti sifatida</p> <p>Shaxs tushunchasi. Shaxs rivojla-nishi. Shaxsni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar. Shaxs rivojining yosh davrlari.</p>	IV semestr, 4-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
<p>1.2.1 . Ta'lim jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari.</p> <p>Ta'lim jarayoni yaxlit tizim sifatida. "Qonun", "qonuniyat" va "tamoyil" tushunchalari. Ta'limning umumiy va xususiy qonuniyatlari. Ta'limning mazmunli va tashkiliy-metodik tamoyillari.</p>	IV semestr, 5-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
<p>1.2.2 . Modernizatsiyalashgan ta'lim mazmuni.</p> <p>"Ta'lim mazmuni" tushunchasi va ta'lim mazmunini belgilashga doir yondashuvlar. Kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim mazmunini loyihalash. Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi asosiy meyoriy hujjatlar. Darslik va uning vazifalari, unga qo'yiladigan talablar hamda o'quv qo'llanma-larning turlari.</p>	IV semestr, 6-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
<p>1.2.3 . Ta'lim metodlari va vositalari.</p> <p>"Metod", "ta'lim metodi", "usul", "qoida" tushunchalari. Ta'lim me-todlari tasnifi. Ta'lim metodlarining mohiyati. Ta'lim vositalari.</p>	IV semestr, 7-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
<p>1.2.4 . Dars – ta'limni tashkil etishning asosiy shakli.</p> <p>Dars va unga qo'yiladigan talablar. Darsning turlari va tuzilishi. Nostandart darslar.</p>	IV semestr, 8-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
<p>1.2.5 . O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish</p> <p>Ta'lim olganlikni tashxis etishning tarkibiy qismlari. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini na-zorat qilish turlari, shakl, metodlari. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari.</p>	IV semestr, 9-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
<p>1.3.1 . Har tomonlama barkamol shxsni shakllantirish – milliy tarbiyaning bosh maqsadi.</p> <p>Tarbiya jarayoni, uning maqsad va vazifalari. Yuksak ma'naviy</p>	IV semestr, 10-hafta (guruhlarda ishlash)

axloqiy fazilatlar va ularning mohiyati. Prezident Islom Karimov asarlarida har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish masalasining aks etishi. Tarbiya jarayoniga texnologik yondashuv.	2 s
13.2 . Jamoaning shaxs tarbiyasiga ta'siri. Guruh rahbarining tarbiyaviy ishi. Jamoaga va uning o'ziga xosliklari. O'quvchilar jamoasini shakllantirish darajalari va bosqichlari. Guruh rahbarining funksiyalari, huquqlari, majburiyatlari va tarbiyaviy ish shakllari. Bolalar va yoshlar tashkilotlari faoliyatini tashkil etish. Uyushmagan yoshlar bilan ishlash.	IV semestr, 11-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
1.3.2 . Tarbiyaning umumiy metodlari Tarbiya metodlari, usullari va vositalari tushunchalari. Shaxs ongini shakllantirish metodlari. Shaxs xulq-atvori va faoliyatini tashkil etish metodlari. Shaxsning xulq-atvorini motivatsiyalash va rag'batlantirish metodlari.	IV semestr, 12-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
1.3.3 . Iqtisodiy va ekologik tarbiya Iqtisodiy tarbiyaning maqsad va vazifalari hamda uni amalga oshirish yo'llari. Ekologik tarbiyaning maqsad va vazifalari hamda uni amalga oshirish yo'llari. "Iqtisodiy barqarorlik – jamiyat rivojining asosi" mavzusida tarbiyaviy soat ishlanmasi. "Ekologiya haftaligi" ish rejasi.	IV semestr, 13-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
1.3.4 . Fuqarolik tarbiyasi Fuqarolik tarbiyasining maqsad va vazifalari. Vatanparvarlik va baynalmillatlik tarbiyasining ijtimoiy ahamiyati. Huquqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari. Fuqarolik tarbiyasini tashkil etishga doir amaliy topshiriqlar.	IV semestr, 14-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
1.3.5 . Ma'naviy-axloqiy tarbiya Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmun-mohiyati. Sharq mutafakkirlarining ma'naviy-axloqiy tarbiyaga doir g'oyalari. Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishga doir amaliy topshiriqlar.	IV semestr, 15-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
1.3.5 . Oila tarbiyasi Oila, uning vazifalari va turlari. Zamonaviy oilalar rivojining o'ziga xos xususiyatlari. Ta'lim muassasasining oila bilan olib boradigan ish shakllari. Oilada bolalarda kitobxonlik va mutolaa madaniyatini shakllantirish. Ota-onalarning pedagogik madaniyatini shakllantirish	IV semestr, 16-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
1.3.6 . O'quvchilarning jismoniy va estetik tarbiyasi Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari. Estetik tarbiya mazmuni. Jismoniy va estetik tarbiya vositalari. O'quvchilarda sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish. Muzey va teatr vositasida o'quvchilarda estetik tafakkurni rivojlantirish.	IV semestr, 17-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
1.4.1 . Ta'lim muassasasi menejmenti	IV semestr,

Ta'lim muassasasi menejmentining mohiyati. Ta'lim muassasasini boshqarish funktsiyalari, tamoyillari va metodlari. Ta'lim muassasasini boshqarishga doir me'yoriy hujjatlar.	18-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
1.4.2 . Ta'lim muassasasida metodik ishlarni boshqarish Pedagogik Kengash, Metodika Ken-gashi va metod birlashmalarning maqsad va vazifalari. Pedagogik Kengash, Metodika Kengashi va metod birlashmalarining faoliyatini tashkil etish va boshqarish.	IV semestr, 19-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
1.4.3 . Alohida yordamga muhtoj o'quvchilar bilan individual ta'limni tashkil etish Alohida yordamga muhtoj o'quvchilar bilan individual ta'limni tashkil etishning mazmun-mohiyati. Alohida yordamga muhtoj o'quvchilar bilan tashkil etiladigan ish turlari, shakl va metodlari. Alohida yordamga muhtoj o'quvchilar bilan ishlashda o'qituvchi va ota-onalar hamkorligi.	IV semestr, 20-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
2-modul. Pedagogika tarixi	
2.1.1 . Pedagogik fikrlar taraqqiyotining il manbalari Xalq pedagogikasi mazmuni va tarbiya metodlari tizimi. O'rxun-Enasoy obida-larining tarbiyaviy ahamiyati. "Avesto"da ta'limiy-axloqiy masalalar.	V semestr, 1-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
2.1.2 . Hadis ilmi va uning tarbiyaviy ahamiyati Hadis ilmining paydo bo'lishi va mu-haddislarning hadis ilmining yaratilish-dagi xizmatlari. Al-Buxoriyning "Al-adab al-mufrad" va "As-sahih" asarlari hamda ularning mazmuni. Hadislarning ta'lim-tarbiya uslublari. Imom at-Ter-miziyning hadis ilmini rivojlantirish-dagi xizmatlari. Hadislarning tarbiyaviy ahamiyati.	V semestr, 2-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
2.2.1 . Abu Nasr Forobiyning pedagogik g'oyalari Forobiyning hayoti va ijodi. Forobiy fanlar tasnifi haqida. Forobiy aqliy tarbiya haqida. Forobiyning komil insonni shakllantirishga oid qarashlari.	V semestr, 3-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
2.2.2 . Abu Ali ibn Sino ta'lim-tarbiya haqida Ibn Sinoning hayoti va ijodi. Ibn Sino-ning aqliy, jismoniy va mehnat tarbiya-siga dior qarashlari. Abu Ali ibn Sino-ning sog'lom turmush tarziga doir fikrlari.	V semestr, 4-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
2.2.3 . Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy va Ahmad Yugnakiyning ta'limiy-axloqiy qarashlari Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy va Ahmad Yugnakiyning axloqiy qarashlari. Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yugnakiy bilimning foydasi va nodon-likning ziyoni haqida. Yusuf Xos Hojib va Mahmud Qoshg'ariy so'zlashuv odobi haqida. Yusuf Xos Hojib-ning qizlar tarbiyasi to'g'risidagi fikrlari.	V semestr, 5-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
2.3.1 . Kaykovusning "Qobusnoma" asari va javonmardlik tarbiyasi	V semestr, 6-hafta

Kaykovusning “Qobusnoma” asarida yoritilgan tarbiyaviy g’oyalari. Kayko-vus javonmardlik tarbiyasiga doir qarashlari. “Qobusnoma” asarida muruv-vat va sahovat fazilatlarining ifoda etilishi.	(guruhlarda ishlash) 2 s
2.3.2 . Mirzo Ulug’bekning pedagogik g’oyalari va ta’lim rivojidadagi xizmatlari Mirzo Ulug’bekning madaniy-ma’rifiy faoliyati. Mirzo Ulug’bekning ta’lim sohasidagi islohoti. Mirzo Ulug’bek-ning ilmiy merosi – jahon fani rivojiga qo’shilgan bebaho hissa.	V semestr, 7-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
2.3.3 . Abdurahmon Jomiyning ta’limiy-ahloqiy qarashlari Jomiyning hayoti va faoliyati. Jomiy ta’lim-tarbiya to’g’risida. Jomiyning komil insonni tarbiyalashga oid qarashlari.	V semestr, 8-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
2.3.4 . Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari Alisher Navoiyning ilmiy-ma’rifiy faoliyati. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarining shaxs tarbiyasidagi o’rni. Alisher Navoiy maktab, madrasa va mudarrislarlar haqida.	V semestr, 9-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
2.4.1 . Jaloliddin Davoniyning ta’limiy-axloqiy qarashlari Davoniyning ilm-fan taraqqiyotida tutgan o’rni. Davoniyning axloqiy kamolotga doir qarashlari.	V semestr, 10-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
2.5.1 . Jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik qarashlari Jadid maktablari va o’qitish tizimi. Jadid ma’rifatparvarlari tomonidan yaratilgan darsliklar va ularning maz-muni. Mahmudxo’ja Behbudiy, Mu-navvar Qori Abdurashidxonov va Abduqodir Shakuriylarning pedagogik g’oyalari.	V semestr, 11-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
2.5.2 . Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari Abdulla Avloniyning hayoti va ijodi. Avloniy tashkil etgan maktablar va darsliklar. “Turkiy Guliston yohud axloq” asarida komil inson tarbiyasiga oid ilgari surilgan g’oyalar.	V semestr, 12-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
2.7.1 . O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlarida ma’naviy tarbiya va ta’lim tizimini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari Islom Karimov asarlarida ta’lim-tarbiya to’g’risidagi ilgari surilgan g’oyalar va ta’lim tizimini isloh qilish masalalari. Islom Karimov barkamol inson tarbiyasi haqida.	V semestr, 13-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
2.8.1 . Yan Amos Komenskiyning pedagogik tizimi Yan Amos Komenskiy tarbiyaning maqsadi va vazifalari to’g’risida. Komenskiy tarbiyaning tabiat bilan uyg’un bo’lish to’g’risida. “Buyuk didaktika” asarida ilgari surilgan didaktik tamoyillar. Komenskiyning sinf-dars tizimi tavsifi. Komenskiyning o’qituvchilik kasbiga qo’ygan talablari.	V semestr, 14-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
2.8.2 . Konstantin Dmitriyevich Ushinskiyning pedagogik tizimi	V semestr, 15-hafta

K.D.Ushinskiyning hayoti va pedago-gik faoliyati. Ushinskiy pedagogika fani va tarbiya san’ati haqida. K.D. Ushinskiy pedagogikasida xalqchilik go’yasi. Xalq pedagogikasi va uning vazifalari. Ushinskiy didaktikasi.	(guruhlarda ishlash) 2 s
2.8.3 . Jahonning iqtisodiy rivojlangan davlatlari ta’lim tizimi (o‘quv loyihasi) Jahonning iqtisodiy rivojlangan davlat-larida ta’lim siyosati. Jahonning iqtisodiy rivojlangan davlatlari ta’lim tizimi. Ta’lim mazmuni. Pedagog-kadrlar tayyorlash tizimi.	V semestr, 16-hafta (kichik guruhlarda ishlash) 2 s
3-modul. Pedagogik mahorat	
3.1.1 . Pedagogik fikrlar va maktablar tarixida o‘qituvchi mahorati masalalari Sharq allomalari muomala madaniyati, notiqlik san’ati va o‘qituvchilik kasbining o‘ziga xosliklari haqida. Pedagogik fikrlar va maktablar tarixida o‘qituvchi mahorati masalalari. Hozirgi zamon pedagogika ilmida pedagogik mahorat va pedagogik texnika asoslari.	VI semestr, 1-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
3.2.1 . Pedagogik qobiliyat – pedagogik mahoratning asosi sifatida Pedagogik qobiliyatning umumiy tavsifi. Pedagogik qobiliyat turlari. Pedagogik qobiliyatning tayanch, etakchi va yordamchi xususiyatlari.	VI semestr, 2-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
3.2.2 . Kommunikativ qobiliyat va pedagogik ta’sir ko’rsatish. Asosiy kommunikativ malakalar. Ishontirish kommunikativ ta’sir etish usuli sifatida. Ishontirishning og’zaki ta’sir etish turlari. Inontirishning og’zaki ta’sir etish turlari. Neyrolingvistik dasturlashtirish texnologiyalari	VI semestr, 3-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
3.2.3 . Diqqatni to‘g’ri taqsimlash va kuzatuvchanlik Pedagogik diqqatning mohiyati va maqsadga qaratilganligini anglashga doir mashqlar. O‘qituvchi diqqatining individualligini aniqlashga doir mashqlar. Diqqatni rivojlantirishga doir mashqlar. Kasbiy diqqat va kuzatuvchanlikni o’zlashtirishga doir mashqlar.	VI semestr, 4-hafta (individual) 2 s
3.2.4 . Kasbiy-pedagogik xayolot (fantaziya) Pedagogik xayolotning mohiyati va maqsadga qaratilganligini aniqlashga doir mashqlar. O‘qituvchi kasbiy xayolotning individual o‘ziga xosliklarini aniqlashga doir mashqlar. Kasbiy-pedagogik xayolotni rivojlan-tirishga doir mashqlar.	VI semestr, 5-hafta (individual) 2 s
3.2.5 . Pedagog kasbiy kompetentligining tuzilishi va mazmuni “Kompetentsiya” va “kompetentlik” tushunchalari. Kompetentsiyaning turlari. Kasbiy kompetentlik va uning o‘ziga xosliklari.	VI semestr, 6-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s

<p>3.2.6 . Kreativlik – pedagogik ijodkorlikning asosi sifatida Kreativ qobiliyat: tuzilishi va o‘ziga xosliklari. Kreativ jarayon tuzilmasi. Kreativ kompetentlikni shakllantirish modellari. Kasbiy faoliyatda faol ijobiy motivatsiyani shakllantirish. Akmeogramma – pedagogik ijodkorlikni baholashning muhim vositasi.</p>	VI semestr, 7-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
<p>3.3.1 . O‘qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi Pedagogik muloqot va uning vazifalari, tuzilishi. Pedagogik muloqot uslublari. Deyl Karnegi ta’limoti bo‘yicha muloqot madaniyati.</p>	VI semestr, 8-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
<p>3.3.2 . Pedagogik nizo Pedagogik nizo va uning kelib chiqish sabablari. Pedagogik nizolarning turlari. Pedagogik nizolar profilaktikasi.</p>	VI semestr, 9-hafta (guruhlarda ishlash) 2 s
<p>3.4.1 . O‘qituvchining mimik va pantomimik mahorati O‘qituvchining tashqi qiyofasi. O‘qituvchining tashqi qiyofasini shakllantirish madaniyati. O‘qituvchi-ning mimik va pantomimik harakatlari. Gavda tutish estetikasi. Muloqotning noverbal vositalari yordamida munosabatni ifoda etish texnikasi. Modellashtirish. Ichki monolog.</p>	VI semestr, 10-hafta (individual) 2 s
<p>3.4.2 . Nutq texnikasi asoslari: nafas olish va ovoz. Nutq texnikasi: nafas olish, tovush, diktsiya, tembr, ritmika. O‘qituvchi-ning nutq malakasini shakllantirish yo‘llari. Fonatsion nafas olishni rivojlantirishga doir mashqlar. Ovozni rivojlantirishga doir mashqlar. Mikroo‘qitish.</p>	VI semestr, 11-hafta (individual) 2 s
<p>3.4.3 . O‘qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish Kasbiy yetuklik va pedagogning o‘z-o‘zini rivojlantirishi. O‘qituvchining ilmiy mehnatini tashkil etish qonun va tamoyillari. Ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish va ularni umumlashtirish usullari: gazeta-jurnallardan ilg‘or o‘qituvchilar tomonidan yozilgan materiallarni to‘plash; ilg‘or o‘qituvchilar pedagogik tajribasini o‘rganish rejasini tuzish; bir o‘qituvchining pedagogik tajribasini o‘rganib, ishlanma tayyorlash.</p>	VI semestr, 12-hafta (individual) 2 s

II.1.1. Kursning nazariy bloki mazmuni

1-modul. Pedagogika nazariyasi

Modulning didaktik maqsadi. Mazkur moduldagi o‘quv axborotlarini o‘rganish asosida talaba:

- pedagogikaning asosiy kategoriya va tushunchalaridan og‘zaki va yozma nutqida erkin foydalanish; ishchi o‘quv lug‘atini tuzish va undan foydalanish;
- ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishning maqsad va vazifalarini aniqlashtirish;

- pedagogik jarayon qonuniyat va tamoyillarining mohiyatini ochib berish va uni amaliyotda qo‘llash;
- ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalash va rejalashtirish;
- pedagogik jarayonni algoritmik ketma-ketlikda amalga oshirish kompetensiyalarini o‘zlashtirishi zarur.

1.1-submodul. Pedagogikaning umumiy asoslari.

1.1.1-o‘quv elementi. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini rivojlantirishning kontseptual asoslari.

Nazariy blok. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”. Kadrlar tayyorlash Milliy modeli va uning tarkibiy qismlari. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari. Ta’lim tizimi va turlari.

Muammoli blok. Mustaqillik davrining birinchi choragi va 2017-2021 yillardagi “Harakatlar strategiyasi”ni qiyosiy tahlil etish.

Mustaqil ta’lim bloki. “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning “Kadrlar tayyorlash Milliy modeli” bo‘limini konspekt qilish.

1.1.2-o‘quv elementi. Pedagogika shaxs tarbiyasi va rivojlanishi to‘g‘risidagi fan. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari

Nazariy blok. Pedagogika fani va uning asosiy kategoriyalari. Pedagogika fanining paydo bo‘lishi va rivojlanishi. Pedagogik fanlar tizimi. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o‘tkazish.

Muammoli blok. Pedagogikaning yangi sohalari (neyropedagogika, pedagogik akmeologiya, pedagogik kvalimetriya, badiiy pedagogika)ni o‘rganish va o‘quv loyihasi tayyorlash.

Mustaqil ta’lim bloki. “Pedagogika” darsligidan pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlarini o‘qib-o‘rganib, konspekt qilish.

1.1.3-o‘quv elementi. Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi.

Nazariy blok. “Individ” va “shaxs” tushunchasi. Shaxs rivojlanishining ijtimoiylashuv bilan aloqadorligi. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit va tarbiyaning tutgan o‘rni. Shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari.

Muammoli blok. Shaxs rivojlanishining yosh davrlarini fiziologiya va psixologiya fanlari bilan aloqadorlikda tahlil etish va pedagogik davrlashtirishga tavsif berish.

Mustaqil ta’lim bloki. “Pedagogika” darsligining mavzuga bag‘ishlangan bo‘limini o‘qib chiqib, o‘smir va o‘spirinlik yosh davri xususiyatlariga tavsif yozish.

1.1.4-o‘quv elementi. Yaxlit pedagogik jarayon.

Nazariy blok. Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasi va uning tuzilishi. Pedagogik jarayon qonuniyatlari va tamoyillari. Pedagogik jarayonda tarbiyaning mohiyati va maqsadi.

Muammoli blok. Tafakkur qonuniyatlari va yaxlit pedagogik jarayon qonuniyatlarini qiyosiy tahlil etish.

Mustaqil ta'lim bloki. "Pedagogika (Pedagogik ta'lim)" jurnalida nashr ettirilgan pedagogik jarayon qonun va qonuniyatlariga bag'ishlangan maqolalarga annotasiya yozish.

1.2-submodul. Didaktika (Ta'lim nazariyasi).

1.2.1-o'quv elementi. Didaktika – pedagogik ta'lim nazariyasi. O'qitish jarayoni yaxlit tizim sifatida.

Nazariy blok. Ta'lim nazariyasi (didaktika) pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida. Didaktikaning maqsad va vazifalari. Ta'lim jarayonining mohiyati. O'qitish va o'rganish jarayonlari tavsifi, o'quv jarayonida ularning o'zaro bog'liqligi. O'quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi. Ta'lim tamoyillari va qonuniyatlari.

Muammoli blok. Klasterli yondashuv asosida didaktikaning tizim ko'rinishida tahlil etish va o'quv loyihasini tayyorlash.

Mustaqil ta'lim bloki. Pedagogikaga oid o'quv adabiyotlaridan "Didaktik tizimlar" mavzusini konspekt qilish.

1.2.2-o'quv elementi. Ta'lim mazmuni.

Nazariy blok. Ilmiy-texnik jarayon va ta'lim mazmuni. Hozirgi vaqtda ta'lim mazmunini belgilashga doir asosiy g'oyalar. Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar. Davlat ta'lim standarti.

Muammoli blok. Ta'lim mazmunini aniqlashtirishga doir yondashuvlarni qiyosiy tahlil etish.

Mustaqil ta'lim bloki. Pedagogikaga oid o'quv adabiyotlarini o'qib, ta'lim mazmunini tanlash mezonlari va tamoyillarini konspekt qilish.

1.2.3-o'quv elementi. Ta'lim metodlari va vositalari.

Nazariy blok. Ta'lim metodlari va usullari tushunchalari. Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar. Ta'lim metodlarining mohiyati. Ta'lim metodlarini tanlab olish shartlari. Ta'lim vositalari va ularning funktsiyalari.

Muammoli blok. Ta'lim metodlarini tasniflashga doir yondashuvlarni tahlil etish.

Mustaqil ta'lim bloki. Pedagogikaga oid o'quv adabiyotlarini o'qib, ta'lim metodlarini turlicha tasnif qilinishi sabablarini aniqlash va konspekt qilish.

1.2.4 . Ta'limni tashkil etish shakllari va turlari.

Nazariy blok. Ta'limni tashkil etish shakllari tushunchasi va ta'lim turlari. Darsning turlari va tuzilishi. Nostandart darslar. Ta'limni tashkil etishning yordamchi shakllari. O'qituvchining darsga tayyorlanishi.

Muammoli blok. Darsning standart va nostandart turlarining afzalliklari va kamchiliklarini tahlil etish.

Mustaqil ta'lim bloki. Pedagogikaga oid o'quv adabiyotlardan mavzuga doir qismlarini o'qib, quyidagi masalalarni yozma bayon etish: 1. O'qitishning sinf-dars tizimining boshqa ta'lim tizimlaridan farqi nimada? 2. Nostandart darslarga tavsif yozing.

1.2.5-o'quv elementi. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish.

Nazariy blok. Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati. O'quv jarayonida nazorat va hisobga olish funksiyalari. Ta'lim olganlikni tashxis etish tamoyillari. O'quv faoliyati natijalarini hisobga olish turlari, shakllari va metodlari. Bilim, ko'nikma va malakalarni baholash mezonlari.

Muammoli blok. O'quvchilarning o'zlashtirish sifatiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish.

Mustaqil ta'lim bloki. Pedagogikaga oid o'quv adabiyotlarini o'qib, quyidagi masalalarni konspektlashtirish: 1. O'quvchilarning bilimini baholashga doir chet el tajribasi. 2. Ta'limda o'zlashtirishdan ortda qolish sabablari.

1.3-submodul. Tarbiya nazariyasi.

1.3.1-o'quv elementi. Tarbiya jarayonining mohiyati va mazmuni. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari.

Nazariy blok. Tarbiya tushunchasi, tarbiyaning maqsadi va umumiy vazifalari. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari. Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari.

Muammoli blok. Yoshlar tarbiya – strategik masala ekanligini tahlil etish va aniq misollar orqali asoslash.

Mustaqil ta'lim bloki. Pedagogikaga oid o'quv adabiyotlaridan tarbiya tamoyillarini o'qib, konspekt yozish.

1.3.2-o'quv elementi. Jamoa tarbiya ob'yekti va sub'ekti sifatida.

Nazariy blok. Jamoa tushunchasi. O'quvchilar jamoasini shakllantirishning mohiyati va tashkiliy asoslari. O'quvchilar jamoasining rivojlanish darajasi va bosqichlari. O'quvchilar jamoasi rivojining asosiy shart-sharoitlari.

Muammoli blok. Sotsiumning bola rivojidadagi ta'sirini tahlil etish va misollar orqali asoslash.

Mustaqil ta'lim bloki. Pedagogikaga oid o'quv adabiyotlarini o'qib, guruh rahbarining sinfdan tashqarida o'tkaziladigan ish shakllarini konspekt qilish.

1.3.3-o'quv elementi. Tarbiyaning umumiy metodlari.

Nazariy blok. Tarbiyaning umumiy metodlari. Tarbiya metodlari, usullari va vositalari tushunchalari. Shaxs ongini shakllantirish metodlari. Shaxs xulq-atvori va faoliyatini tashkil etish metodlari. Shaxsning xulq-atvorini motivatsiyalash va rag'batlantirish metodlari.

Muammoli blok. Zamonaviy milliy tarbiya metodlarini qiyosiy tahlil etish.

Mustaqil ta'lim bloki. Pedagogikaga oid o'quv adabiyotlarini o'qib, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini qayta tarbiyalash metodlarini konspekt qilish.

1.3.4-o'quv elementi. O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish. Aqliy tarbiya.

Nazariy blok. Mustaqil fikrlash, ilmiy dunyoqarash va milliy g'oyani shakllantirish o'quv-tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari. O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismlari. Aqliy tarbiyaning maqsadi va vazifalari. Aqliy tarbiya vositalari. Iqtisodiy tarbiya – o'quvchilarning ilmiy

dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismi sifatida. O‘quvchilarning ekologik tarbiyasi.

Muammoli blok. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojining o‘zaro aloqadorligini tahlil etish.

Mustaqil ta’lim bloki. “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” kitobining “Milliy mafkuramizning asosiy g‘oyalari” bo‘limini konspekt qilish.

1.3.5-o‘quv elementi. Fuqarolik tarbiyasi.

Nazariy blok. Fuqarolik tarbiyasining maqsad, vazifalari va metodlari. O‘quvchilarga fuqarolik tarbiyasini berish jarayonida Davlat ramzlari (Madhiya, Gerb, Bayroq)dan foydalanish. Vatanparvarlik va baynalminallik tarbiyasining maqsad, vazifalari va metodlari. Huquqiy tarbiya. Yosh avlodning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish – fuqarolik tarbiyasining tarkibiy qismi.

Muammoli blok. Kosmopolotizmning ko‘rinishlari va oqibatlarini tahlil etish.

Mustaqil ta’lim bloki. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining “Inson huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari” bo‘limini konspekt qilish.

1.3.6-o‘quv elementi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya.

Nazariy blok. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari. Ma’naviy-axloqiy tarbiya shakl va metodlari. Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash mazmuni. O‘quvchilarda ongli intizomlilikni tarbiyalash.

Muammoli blok. “Ommaviy madaniyat”ning ko‘rinishlari va salbiy ta’sirini tahlil etish.

Mustaqil ta’lim bloki. Sharq allomalarining ma’naviy-axloqiy tarbiya to‘g‘risidagi fikrlarini alohida ajratib, konspekt qilish.

1.3.7-o‘quv elementi. O‘quvchilarning mehnat, jismoniy va estetik tarbiyasi.

Nazariy blok. Mehnat tarbiyasi maqsad va vazifalari. Mehnat tarbiyasining mazmuni va metodlari. Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari. Jismoniy tarbiya vositalari. Estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari. Estetik tarbiya vositalari.

Muammoli blok. Zamonaviy ijtimoiy-maishiyturmush tarzi sharoitida o‘quvchilarda estetik tafakkurni rivojlantirishning dolzarbligini tahlil etish va asoslash.

Mustaqil ta’lim bloki. Pedagogikaga oid o‘quv adabiyotlarini o‘qib, jisminiy va estetik tarbiyaning vositalarini konspekt qilish.

1.4-submodul. Ta’lim muassasasi menejmenti.

1.4.1-o‘quv elementi. Ta’lim muassasasini boshqarishning nazariy asoslari.

Nazariy blok. Ta’lim muassasasi menejmenti haqida tushuncha. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari haqidagi Nizom. O‘rta-maxsus, kasb-hunar ta’limini boshqarish. Ta’lim muassasasi Ustavi – rahbarlik va boshqaruv tizimini aniqlovchi hujjat.

Muammoli blok. “Menejment” va “boshqaruv” tushunchalarini qiyosiy tahlil etish.

Mustaqil ta'lim bloki. Quyidagi me'yoriy hujjatlarni o'qib-o'rganib, O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining funktsiyalarini konspekt qilish: "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida"gi Nizom; "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi to'g'risida"gi Nizom.

1.4.2-o'quv elementi. Ta'lim muassasasini boshqarish amaliyoti.

Nazariy blok. Boshqaruv metodlari. Ta'lim muassasasi faoliyatini rejalashtirish. Ta'lim muassasasida ichki nazoratni tashkil etish. Ta'lim sohasida attestatsiya. Ta'lim muassasasida metodik ishlarni tashkil etish

Muammoli blok. Boshqaruv metodlarini SWOT texnikasi asosida tahlil etish.

Mustaqil ta'lim bloki. Pedagogik Kengash, Metodika Kengashi va metod birlashmalarining vazifalarini konspekt qilish.

1.5-submodul. Maxsus pedagogika.

1.5.1-o'quv elementi. Korreksion pedagogika.

Nazariy blok. Korreksion pedagogika pedagogik fanlarning tarmog'i sifatida. Korreksion (maxsus) pedagogikaning asosiy vazifalari, tamoyillari va metodlari. Anomal bolalar va ularning umumiy tavsifi.

Muammoli blok. "Alohida yordamga muhtoj bolalar" tushunchasini tahlil etish.

Mustaqil ta'lim bloki. Korreksion pedagogikaning rivojlanishiga doir jahon tajribasini o'rganish va konspekt yozish.

1.5.2-o'quv elementi. Inklyuziv ta'lim.

Nazariy blok. Inklyuziv ta'lim va uning o'ziga xosliklari. Inklyuziv ta'lim tamoyillari. Inklyuziv ta'lim metodlari.

Muammoli blok. O'zbekistonda inklyuziv ta'limni joriy etish holati va istiqbolini tahlil etish.

Mustaqil ta'lim bloki. Respublika bolalar ijtimoiylashuv Markazida amalga oshirilayotgan ishlarni o'rganish va loyiha tayyorlash.

2-modul. Pedagogika tarixi

Modulning didaktik maqsadi. Mazkur modulda o'quv axborotlarini o'rganish asosida talaba:

- pedagogik fikrlar rivojining tadrijiy va davriy xususiyatlarini aniqlashtirish;
- maktab va pedagogik fikrlar rivojini qiyosiy tahlil etish, umumlashtirish;
- pedagogik merosni aksiologik baholash va qadriyatga yo'naltirilgan munosabatni qaror toptirish;
- pedagogik manbalar bilan ishlash va tipologik-tekstologik tahlil etish;
- pedagogik fikrlar rivojini tahlil etish asosida ta'lim-tarbiya rivojining istiqbolli yo'nalishlarini prognozlash kompetensiyalarini o'zlashtirishi zarur.

2.1-submodul. Ilk pedagogik fikrlar tarixi.

2.1.1-o'quv elementi. Pedagogika tarixi fan sifatida. Ibtidoiy jamoada tarbiya.

Nazariy blok. “Pedagogika tarixi” fanining maqsad va vazifalari. “Pedagogika tarixi” fani g’oyalarining kishilik jamiyati taraqqiyoti bilan o‘zaro aloqadorligi. Ta’lim-tarbiya va pedagogika tarixini davrlashtirish muammolari. Ibtidoiy jamiyatda tarbiya. Ibtidoiy jamiyatning yemirilish davrida tarbiya.

Muammoli blok. “Tarix” va “Pedagogika tarixi” fanini davrlashtirishga doir yondashuvlarni qiyosiy tahlil etish.

Mustaqil ta’lim bloki. “Pedagogika tarixini davrlashtirish” mavzusida o‘quv loyihasi tayyorlash.

2.1.2-o'quv elementi. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.

Nazariy blok. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha ta’lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti. So‘g’diyona, Baqtriya, Xorazm davlatlarida ta’lim-tarbiya. Xalq maktablari, san’at maktablari. “Avesto” – eng qadimgi davrlarning madaniy yozma yodgorligi. Xalq og’zaki ijodida xalq pedagogikasining boshlanishi. Ilk yozma pedagogik manbalar.

Muammoli blok. “Onalar maktabi” va “Xalq maktabi”ni qiyosiy tahlil etish.

Mustaqil ta’lim bloki. “Avesto” kitobini o‘qib, annotatsiya yozish.

2.2-submodul. VII-XIV asrning birinchi yarmida O'rta Osiyoda maktab va pedagogik fikrlar rivoji.

2.2.1-o'quv elementi. VII asrdan IX asrgacha O'rta Osiyoda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar.

Nazariy blok. Islom dinining tarqalishi va uning ta’lim-tarbiyaga ta’siri. Musulmon maktablari va unda ta’lim-tarbiya mazmuni. Diniy kitob-larning tarbiyaviy ahamiyati. Qur’oni Karim – axloqiy-falsafiy ta’limotlar manbai. Hadis ilmining paydo bo‘lishi. Muhaddislar (Imom Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy va boshqalar)ning hadis ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi.

Muammoli blok. Musulmon maktablaridagi o‘qitish tizimini tahlil etish.

Mustaqil ta’lim bloki. Abu Abdulloh ibn Ismoil al-Buxoriyning “Al-adab al-mufrat” 20 ta hadisni ko‘chirib yozish.

2.2.2-o'quv elementi. Sharq Uyg'onish davrida pedagogik fikrlarning rivojlanishi.

Nazariy blok. IX-XI asrlar – Sharq Uyg‘onish davri. Abu Abdulloh Xorazmiyning didaktik qarashlari. Abu nasr Forobiyning asarlaridagi pedagogik fikrlar. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-pedagogik qarashlari. Abu Ali ibn Sino tarbiya va ta’lim haqida.

Muammoli blok. Ilk Sharq Uyg‘onish davridagi pedagogik fikrlarni qiyosiy tahlil etish.

Mustaqil ta’lim bloki. “O‘zbek pedagogikasi antologiyasi”ning 62-77, 118-132 betlarini hamda Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” kitobini o‘qib, 126-174 betlarini o‘qib, konspekt yozish.

2.2.3-o'quv elementi. Sharq Uyg'onish davrida ta'limiy-axloqiy fikrlar rivoji.

Nazariy blok. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida ta'lim-tarbiya masalalari. Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilik" asari – pandnoma asar sifatida. Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarida didaktik qarashlar. Kaykovusning "Qobusnoma" asarining tarbiyaviy ahamiyati.

Muammoli blok. Pandnoma-didaktik asarlarning o'ziga xosliklarini qiyosiy tahlil etish.

Mustaqil ta'lim bloki.

2.3-submodul. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji.

2.3.1-o'quv elementi. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda tarbiya va maktab.

Nazariy blok. Ijtimoiy hayotning ta'lim-tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivojiga ta'siri. So'fiylik ta'limotining ma'naviy hayotga ta'siri. Movaraunnahrda Amir Temur tomonidan markazlahgan davlat barpo etilishi va uning fan, madaniyat va ma'rifat rivojiga qo'shgan hissasi. Mirzo Ulug'bekning pedagogik g'oyalari va ma'rifatparvarlik xizmatlari. Ulug'bek davrida maktab islohoti. Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari.

Muammoli blok. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda o'tkazilgan maktab islohotining o'ziga xosliklarini tahlil etish.

Mustaqil ta'lim bloki. "Amir Temur o'g'itlari" kitobini o'qib, konspekt qilish.

2.3.2-o'quv elementi. XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrda Movaraunnahrda pedagogik fikrlar rivoji.

Nazariy blok. Alisher Navoiyning asarlarida tarbiya va in-sonparvarlik masalalari. Navoiyning maktab va madrasalar rivojiga qo'shgan hissasi. Navoiyning oqituvchi (mudarris) to'grisidagi fikrlari. Abdurahmon Jomiyning pedagogik qarashlari. Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari. "Axloqiy Jaloliy" asarining pedagogik fikrlar rivojidadagi o'rni.

Muammoli blok. Alisher Navoiyning insonparvarlik qarashlari va insonparvarlik pedagogikasining tamoyillarini qiyosiy tahlil etish.

Mustaqil ta'lim bloki. "O'zbek pedagogikasi antologiyasi"ning 259-262 betlarini o'qib, konspekt yozish.

2.4-submodul. XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji.

2.4.1-o'quv elementi. 2.4.1-o'quv elementi. XVII asrdan XIX asrning yarmigacha tarbiya va maktab

Nazariy blok. Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarida ta'lim-tarbiya. Maktab va madrasalarda ta'lim mazmuni. Qizlar maktabi va unda ta'lim mazmuni.

Muammoli blok. Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklaridagi ta'lim muassasalari hamda o'qitish tizimini qiyosiy tahlil etish.

Mustaqil ta'lim bloki. "O'zbek pedagogikasi antologiyasi"ning 416-429 betlarini o'qib, konspekt yozish.

2.4.2-o'quv elementi. XVII asrdan XIX asrning yarmigacha fikrlar rivoji.

Nazariy blok. Munis Xorazmiyning “Savodi ta’lim” asari – husnihatga doir dastlabki qo‘llanma sifatida. Muhammad Sodiq Qosh-g‘ariyning “Odob as-solihin” asari – yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni yorituvchi manba.

Muammoli blok. “Axloqi Jaloliy” va “Odob as-solihin” asarlari g‘oyasidagi umumiylik va o‘ziga xosliklarini qiyosiy tahlil etish.

Mustaqil ta’lim bloki. Muhammad Sodiq Qoshg‘ariyning “Yaxshi kishilar odobi” asarini o‘qib, annotatsiya yozish.

2.5-submodul. XIX asrning 2-yarmi – XX asrning 1-yarmida Turkiston o‘lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji.

2.5.1-o‘quv elementi. XIX asrning 2-yarmi – XX asr boshida Turkiston o‘lkasida tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar rivoji.

Nazariy blok. XIX asrning 2-yarmida Turkistonda maktablar tizimi. Chor Rossiyasining ta’lim siyosati. Turkistonda maktablar tizimi. V.P.Nalivkinning ta’lim rivojidagi xizmati. Turkistonda rus maktablarining ochilishi. Yerlik aholi uchun rus-tuzem maktablarining tashkil etilishi. Turkistonda jadidchilik harakati. Yangi usul maktablarining ochilishi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriylarning yangi usul maktablarini tashkil etishdagi ma’rifatparvarlik xizmatlari.

Muammoli blok. Yangi usul maktablaridagi o‘qitish tizimi va mazmunini qiyosiy tahlil etish.

Mustaqil ta’lim bloki. “Pedagogika tarixidan xrestomatiya”ni, o‘qib, Munavvar Qori Abdurashidxonovning pedagogik qarashlarini konspekt qilish.

2.5.2-o‘quv elementi. Turkiston o‘lkasida ta’lim siyosati (1917-1924).

Nazariy blok. 1917-1924 yillarda Turkistonda ta’lim muassasalari. Milliy ziyolilar va arboblarning ta’lim rivojidagi hissasi.

Muammoli blok. Milliy ziyolilarning Turkistonda ta’lim rivojiga ta’sirini tahlil etish.

Mustaqil ta’lim bloki. “Milliy uyg‘onish pedagogikasi” kitobini o‘qib, Turkistonda yaratilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalarga annotatsiya yozish.

2.6-submodul. 1924-1991 yillarda O‘zbekistonda ta’lim tizimi.

2.6.1-o‘quv elementi. 1924-1945 yillarda ta’lim va pedagogika fani.

Nazariy blok. 1924-1945 yillarda xalq maorifi tizimi. 1924-1945 yillarda xotin-qizlar ta’limi. 1924-1945 yillarda oliy ta’lim tizimi.

Muammoli blok. Yuqori malakali o‘zbek professor-o‘qituvchilar va o‘zbek tilidagi darsliklarni tayyorlashga harakat qilinmaganligi sabablarini tahlil etish.

Mustaqil ta’lim bloki. “O‘zbekistonning yangi tarixi. O‘zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida” kitobining mavzuga doir qismlari asosida xronologik jadval tuzish.

2.6.2-o‘quv elementi. 1945-1991 yillarda O‘zbekistonda ta’lim tizimi va pedagogika fani rivoji.

Nazariy blok. 1945-1991 yillarda xalq ta’limi tizimi. 1945-1991 yillarda hunar-texnika va oliy ta’lim tizimi. Siddiq Rajabov hayoti va faoliyati hamda uning pedagogika fani rivojiga qo‘shgan hissasi.

Muammoli blok. 1945-1991 yillardagi O‘zbekistondagi ta’lim tizimini SWOT texnikasi asosida tahlil etish.

Mustaqil ta’lim bloki. “Pedagogika fani ravnaqi yo‘lida” kitobini o‘qib, annotatsiya yozish.

2.7-submodul. Mustaqil O‘zbekiston ta’lim tizimi va innovatsion-pedagogik fikrlar rivoji.

2.7.1-o‘quv elementi. Mustaqil O‘zbekiston ta’lim tizimi.

Nazariy blok. Mustaqil O‘zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘ri-sida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” – Respublikamizda ta’lim-tarbiyani tashkil etish va kadrlar tayyorlashning huquqiy asosi sifatida. Mustaqillik davrining birinchi choragidan keyin ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar.

Muammoli blok. Mustaqil O‘zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil etish.

Mustaqil ta’lim bloki. “Milliy ta’lim modeli va kadrlar tayyorlash milliy dasturi: “Islom karimov modeli” – O‘zbekiston mustaqilligining yuksak yutug‘i va natijasi” kitobini o‘qib, annotatsiya yozish.

2.7.2-o‘quv elementi. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivoji va strategik yo‘nalishlari.

Nazariy blok. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojining asosiy yo‘nalishlari. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlarida jamiyat rivojining ma’naviy-axloqiy negizlari va yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirishga doir kontseptual fikrlarning ifoda etilishi. . O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan “Harakatlar strategiyasi”da ta’lim-tarbiya masalalari.

Muammoli blok. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojining asosiy yo‘nalishlarini tahlil etish.

Mustaqil ta’lim bloki. “Yoshlar tabiyasi – strategik masala” maqolasini o‘qib, annotatsiya yozish.

2.8-submodul. Jahon pedagogik fikrlar rivoji va komparativ pedagogika.

2.8.1-o‘quv elementi. Eng qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi yarmida jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi.

Nazariy blok. Qadimgi Sharq, Qadimgi Yunoniston, Qadimgi Rim davlatlarida maktab va tarbiya. Qadimgi Yunoniston faylasuflari tarbiya to‘g‘risida. Qadimgi Rimda pedagogik g‘oyalari rivoji. XII asrda Rossiyada pedagogik adabiyotlarning nshr etilishi. Rus pedagog-olimlarining pedagogik g‘oyalari. G‘arbiy Yevropada maktab va pedagogik fikrlar. Iogann Genrix Pestalotsiyning didaktika va boshlang‘ich ta’lim metodikasiga qo‘shgan hissasi. Adolf Distervergning rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi. Ya.A.Komenskiyning pedagogik nazariyasi.

Muammoli blok. Jahon pedagogika fani rivojining davriy va tipologik xususiyatlarini tahlil etish.

Mustaqil ta'lim bloki. "Pedagogika tarixidan xrestomatiya" kitobining 90-93 betlarini o'qib, konspekt qilish.

2.8.2-o'quv elementi. XIX asrning 2-yarmi – XX asrda jahon pedagogika fanining rivoji. K.D.Ushinskiyning pedagogik merosi.

Nazariy blok. XIX asrning oxiri – XX asrda G'arbiy Yevropa, AQSh, Rossiyada reformatorlik pedagogikasi va uning asosiy yo'nalishlari. M.V.Lomonosov va uning rus pedagogikasi va maktablar rivojidadagi o'rni. L.N.Tolstoyning pedagogik qarashlari. K.D.Ushinskiy pedagogika fani va tarbiyaning ahamiyati to'grisida. K.D.Ushinskiyning didaktik qarashlari va pedagogik merosi.

Muammoli blok. Reformatorlik pedagogikasining zamonaviy pedagogik paradigmalardan aloqadorligini tahlil etish.

Mustaqil ta'lim bloki. "Pedagogika tarixidan xrestomatiya" kitobining 93-98 betlarini o'qib, konspekt qilish.

2.8.3-o'quv elementi. Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta'lim tizimi va pedagogika fani rivoji.

Nazariy blok. Jahon mamlakatlari ta'lim tizimi. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi. Ta'lim modellari. XX asr jahon ta'lim tizimidagi global tendentsiyalar. Xalqaro loyihalar va ta'lim dasturlari.

Muammoli blok. Jahon ta'lim modellarini qiyosiy tahlil etish.

Mustaqil ta'lim bloki. "Jahon mamlakatlari ta'lim tizimi" mavzusida o'quv loyihasini tayyorlash.

3-modul. Pedagogik mahorat

Modulning didaktik maqsadi. Mazkur moduldagi o'quv axborotlarini o'rganish asosida talaba:

- ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik qobiliyat turlaridan samarali foydalanish;
- o'quvchilar bilan samarali muloqotga kirishish, kommunikativ ta'sir ko'rsatish, kasbiy-pedagogik fantaziyaga ega bo'lish;
- o'quvchilarning xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatishda muloqotning noverbal vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish;
- pedagogik kasbiga xos yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lish;
- yuqori saviyadagi og'zaki va yozma nutqni egallash, nutq madaniyatini o'zida tarkib toptirish;
- pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etish, o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini o'zlashtirishi zarur.

3.1-submodul. Pedagogik mahoratning metodologik masalalari.

3.1.1-o'quv elementi. Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati masalalari.

Nazariy blok. Pedagogik faoliyat va uning o'ziga xos xu-susiyatlari. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da pedagogik faoliyatni tashkil etishga qo'yilgan talablar. Pedagogik fikrlar taraqqiyotida o'qituvchi mahorati masalalari.

Muammoli blok. O'tmish va hozirgi vaqtda o'qituvchi shaxsi va kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan talablarni qiyosiy tahlil etish.

Mustaqil ta'lim bloki. "O'zbek pedagogikasi antologiyasi" kitobidaagi o'qituvchi mahorati haqida aytilgan fikrlarni konspekt qilish.

3.1.2-o'quv elementi. Pedagogik mahoratning asosiy komponentlari

Nazariy blok. "Pedagogik mahorat" tushunchasi. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari va ularning mohiyati. O'qituvchining umummadaniy saviyasi va qobiliyati. O'qituvchi faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Pedagog shaxsining insonparvar yo'nalganligi. Pedagogik eruditsiya. Pedagogik qobiliyat. Pedagogik madaniyat. Pedagogik texnika.

Muammoli blok. Pedagogik mahorat tuzilmasiga doir zamonaviy yondashuvlarni tahlil etish.

Mustaqil ta'lim bloki. "O'qituvchi odobi" kitobidagi o'qituvchi mahorati haqida aytilgan fikrlarni konspekt qilish.

3.2-submodul. Pedagogik qobiliyat.

3.2.1-o'quv elementi. O'qituvchi faoliyatida pedagogik qobiliyat.

Nazariy blok. Pedagogik qobiliyatning umumiy tavsifi. Pedagogik qobiliyat turlari. Pedagogik qobiliyatning tayanch, yetakchi va yordamchi xususiyatlari. Pedagogik qobiliyatni shakllantirish yo'llari.

Muammoli blok. Pedagogik qobiliyatning turlarini tasniflashga doir yondashuvlarni tahlil etish.

Mustaqil ta'lim bloki. "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat" kitobimimg "Pedagogik mahorat" bo'limining konspekt qilish.

3.2.2-o'quv elementi. Kommunikativ malakalar va ta'sir ko'rsatish

Nazariy blok. Kommunikatsiya haqida tushuncha. Kommunikatsiya metodlari. O'qituvchining kommunikativ malakasi. Kommunikativ ta'sir etish yo'li. O'qituvchining kommunikativ madaniyati. O'qituvchining kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish yo'llari.

Muammoli blok. O'quvchilarga kommunikativ ta'sir ko'rsatishning samarali yo'llarini tahlil etish.

Mustaqil ta'lim bloki. "Pedagogik mahorat" kitobining kommunikativ qobiliyat va kommunikativ ko'nikmalarga taalluqli bo'limini o'qib chiqib, konspekt qilish.

3.3-submodul. Pedagogik deontologiya.

3.3.1-o'quv elementi. O'qituvchi faoliyatida muomala madaniyati va psixologiyasi.

Nazariy blok. Pedagogik muloqot haqida tushuncha. Pedagogik muloqotning tuzilishi va metodlari. Pedagogik muloqot uslublari. Muloqot madaniyati.

Muammoli blok. Pedagogik muloqotning samarali texnika va texnologiyalarini tahlil etish.

Mustaqil ta'lim bloki. "Pedagogik muloqot asoslari" kitobini o'qib, konspekt qilish.

3.3.2-o'quv elementi. Pedagogik takt va pedagogik etika.

Nazariy blok. Pedagogik nizo va uning sabablari. Pedagogik nizolarning oldini olish yo'llari. Takt va pedagogik takt haqida tushuncha. Takt va taktika. Pedagogik takti qo'llash shartlari. Pedagogik odob. Pedagogning muomala odobi.

Muammoli blok. Pedagogik takti qo'llash positsiyalarini tahlil etish.

Mustaqil ta'lim bloki. "Pedagogik mahorat" kitobining "Pedagogik nazokat va odob-axloq" bo'limini konspekt qilish.

3.4-submodul. Pedagogik faoliyatni ilmiy tashkil etish.

3.4.1-o'quv elementi. Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnikani shakllantirish metodikasi. Nutq texnikasi va madaniyati.

Nazariy blok. Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari. Mimika. Pantomimika. O'qituvchining pedagogik texnikasini shakllantirish yo'llari. Nutq haqida tushuncha. Nutqning o'qituvchi faoliyatidagi o'rni. Nutq madaniyati haqida tushuncha va uning asosiy elementlari. Nutq texnikasi: nafas olish, tovush, diktsiya, rit-mika. Leksik madaniyat. O'qituvchining nutq malakasini shakllantirish yo'llari.

Muammoli blok. Pedagogik texnikani shakllantirishning samarali usullarini tahlil etish.

Mustaqil ta'lim bloki. Pedagogik mahorat" kitobining "Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnikani shakllantirish uslublari" hamda "Yuristning nutq madaniyati" kitobining "Nutq madaniyati va huquq" bo'limlarini konspektlashirish.

3.4.2-o'quv elementi. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash. Pedagogika tajribani to'plash tizimi.

Nazariy blok. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishning mohiyati. O'qituvchining kun tartibi va ish o'rni. Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etish tamoyillari. Pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etishning asosiy yo'nalishlari. O'z-o'zini tarbiyalash va o'z ustida ishlash pedagogik mahoratning asosiy sharti sifatida. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganishda materiallar to'plash. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va ularni qo'llash metodlari.

Muammoli blok. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etishning samarali usullarini tahlil etish.

Mustaqil ta'lim bloki. "Pedagogik mahorat asoslari" kitobining "O'qituvchilarning pedagogik malakasini shakllantirish va rivojlantirish" bo'limini konspekt qilish.

Malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

Malakaviy pedagogik amaliyot jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- talabalarda tarbiyaviy ishga ongli, mas’uliyatli munosabatni shakllantirish, tarbiyaviy ishni tashkil etish mahoratini tarkib toptirish;
- guruh murabbiyining kasbiy ahamiyatli sifatlarini o‘zlashtirishni ta’minlash;
- muayyan pedagogik vazifalarni amalga oshirish orqali pedagogik-psixologik bilimlarni amaliy faoliyat jarayonida mustahkamlash va boyitish;
- tarbiyaviy ishni tashkil etishga doir ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish;
- tarbiyaviy ishga ijodiy-izlanishli yondashish, tarbiyaviy ishni ilmiy tashkil etish malakasini hosil qilish;
- umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalaridagi tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga doir ilg‘or tajribalar bilan tanishish;
- guruh murabbiysi, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati, ota-onalar Kengashining ish rejalarini bilan tanishish;
- o‘quvchilarning individual va yosh xususiyatlarini o‘rganish maqsadida amaliyotchi talabalarning o‘quvchilar bilan muloqati va o‘zaro hamkorligini tashkil qilish;
- iqtidorli va tarbiyasi og‘ir o‘smirlar bilan tarbiyaviy ish olib borish malakasini tarkib toptirish.

Talaba malakaviy pedagogik amaliyot davrida quyidagi ko‘nikma va malakalarni egallashi zarur:

- o‘quvchilar jamoasining ijtimoiy-psixologik va yosh xususiyatlarini hamda ma’naviy-ahloqiy, fuqarolik tarbiyasining umumiy maqsadlaridan kelib chiqqan holda aniq tarbiyaviy vazifalarni belgilay olishi;
- tarbiya jarayonini to‘g‘ri loyihalashtirish va rejalashtirish maqsadida o‘quvchilar jamoasi va o‘quvchi shaxsini o‘rganish;
- guruh murabbiysi, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati, ota-onalar Kengashining ish rejalarini tuzish hamda ma’naviyat va tarbiyaviy soatlarni, ota-onalar yig‘ilishini o‘tkazish;
- tarbiyaviy tadbirlar ssenariysini ishlab chiqish, tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish;
- ta’lim muassasasining oila va mahalla bilan hamkorligini tashkil etish;
- sinfdan va ta’lim muassasasidan tashqari ishlarni tashkil etish va o‘tkazish.

Malakaviy pedagogik amaliyot jarayonida talaba tomonidan bajariladigan topshiriqlarining umumiy ro‘yxati:

1. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar rejasini tuzish.
2. O‘ziga biriktirilgan guruh bilan ishlash.
3. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish.
4. Ota-onalar bilan ishlash.
5. To‘garaklar faoliyatini o‘rganish va modullar o‘tkazish.
6. Tarbiyaviy soatlarni o‘tkazish.
7. “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati faoliyatini o‘rganish.

Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik vositalardan;

- amaliy mashg'ulotlarida ta'limning interfaol metodlaridan keng foydalaniladi.

Didaktik vositalar

Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska - Hitachi, LCD-monitor, elektron ko'rsatgich (ukazka).

video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.

kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko'z (glazok).

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Pedagogika. // M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.

2. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.

3. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. – T.: TDPU, 2012.

4. Калдыбекова А.С. Жалпы педагогика теориясы және практикасы. I. Педагогика теориясы. – Т.: ТДПУ, 2013.

5. Ҳошимов К., Нишнонова С., Иномова М., Ҳасанов Р. Педагогика тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1996.

6. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.

7. Ҳошимов К., С.Очил. Ўзбек педагогикаси антологияси. – Т.: Ўқитувчи, 1999.

8. Ҳошимов К., С.Очил. Ўзбек педагогикаси антологияси. – Т.: Ўқитувчи, 2010.

9. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Т.: Фан, 2006.

10. Omonov X., Xo'jayev N., Madyarova S., Eshchonov E. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009.

11. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2011.

12. Alex Moore. Teaching and learning: Pedagogi. Curriculum and culture. USA, 2012. Routledge.

13. Neil Selwyn. Education and Technology: Key issues and Debates. Australia, 2011. Continuum.

14. Keith S. Taber. Modelling Learners and Learning in Science Education: Developing Representations of Concepts, Conceptual Structure and Conceptual Change to Inform Teaching and Research. UK, 2013 Springer.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Хасанбоев Ж, Тўракулов Х., Хайдаров М., Ҳасанбоева О. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Т.: Фан ва технология, 2008.

2. Калдыбекова А.С. Умумий педагогика назарияси ва амалиётдан лаборатория машғулоти. – Т.: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2013.

3. Niyozov G‘., Axmedova M. Pedagogika tarixidan seminar modullari. – Т.: NOSHIR, 2011.

4. Маънавият юлдузлари (Марказий Осиёлик машҳур сиймолар, алломалар, адиблар). - Т.: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1999.

5. Ismoilova Z. Pedagogikadan amaliy modullar. – Т.: Fan, 2001.

Elektron ta’lim resurslari

1. www.tdpu.uz

2. www.pedagog.uz

3. www.Ziyonet.uz

4. www.edu.uz

5. [tdpu-INTRANET. Ped](#)